ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati

Otabayeva Xusniya Sharofiddin qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
E-mail:xusniyaotaboyeva7@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda fanlarni o‘qitishda jahon tajribalaridan foydalanish davr talabi sanaladi. Shu o‘rinda xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik, fanlar integratsiyasi asosida fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yish muhimdir. Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim tizimida fanlararo integratsiyaning ahamiyatiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: integratsiya, boshlang‘ich sinf, o‘qish savodxonligi, o‘qitish, metod, fan, tafakkur, fikrlash.

Значение межпредметной интеграции в развитии творческого мышления у учащихся начальных классов

Отабаева Хусния Шарафиддиновна
Студентка 4 курса направления
начального образования Ургенчского
государственного педагогического института
E-mail:xusniyaotaboyeva7@gmail.com

Аннотация. Сегодня использование мирового опыта в преподавании предметов является требованием времени. В связи с этим важно подготовиться к международным исследованиям и наладить преподавание предметов на основе интеграции наук. Эта статья посвящена значению междисциплинарной интеграции в системе начального образования.

Ключевые слова: интеграция, начальная школа, грамотность чтения, обучение, метод, наука, мышление, размышление.

The importance of interdisciplinary integration in the development of creative thinking in primary school students

Otabayeva Khusnia Sharafiddinovna
4st year student of primary education
Urgench State Pedagogical Institute
E-mail:xusniyaotaboyeva7@gmail.com

Abstract. Today, the use of world experience in teaching subjects is a requirement of the times. In this regard, it is important to prepare for international research and establish the teaching of subjects based on the integration of sciences. This article is dedicated to the importance of interdisciplinary integration in the primary education system.

Keywords: integration, primary school, reading literacy, teaching, method, science, thinking, thinking.

Mamlakatimizda fanlararo integratsiyani takomillashtirish fan-texnikaning rivojlanishida, shuningdek, yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim tizimiga, jumladan, boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya mazmunida takomillashtirish bo‘yicha samarali tajriba

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

va andozalarni joriy etish orqali ta’minlanadi [1]. Shu bilan birga integratsiya asosida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya asosida o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha psixologik, pedagogik va o‘quvchi o‘quv-ijodiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish holati keltirilgan.

Integratsiyalashgan darslarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va amalga oshirish orqali sinflararo musobaqa, savol-javob, munozara tashkil qilish, mustaqil tarzda ijodiy fikr yuritishga o‘rgatish mumkin va bu kabi zamonaviy dars turlarini bajarishdan maqsad dars jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatini jadallashtirish, o‘quv manbayini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga etishishdan iborat. Bu kabi mexanizm o‘quvchilarda amaliyotni hayot bilan bog‘lashga, dunyoni o‘zgacha tasavvur qilishga o‘rgatadi, shuningdek, fikrlar rang-barangligiga erishishga, shaxs va jamiyat uyg‘unligini anglashga, nostandart mulohaza yuritishga imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, integrativ yondashuvda “fanning mantiqiy-metodologik jihati ko‘proq ahamiyatga ega bo‘ladi. Fanning mos tarmog‘i mantiqiy tuzilmasi tahlili va bu tuzilma komponentlarining prognostik funksiyalarini birgalikda ilmiy bilimlar tizimini hosil qiluvchi asoslar, nazariyalar, qonun va qonuniyatlar, tushunchalar va toifalar, tamoyillar va qoidalar, farazlar, metodlar va dallilarni aniqlash”dan iborat bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya mazmunida o‘qitish o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va uning har bir bosqichini tavsiflash uchun bilim va ko‘nikmalar tuzilmasini tizimli yo‘lga qoyishda tushunchalar, faoliyatni samarali o‘zgartirish va qayta tashkil etishni inobatga oluvchi tuzilmaning rivojlanishi va uni vaqt bo‘yicha taqsimlashni nazarda tutadi. Shunday ekan, o‘quvchilar nazariyani amaliyot bilan bog‘lashni ham o‘rganib boradilar.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini takomillashtirish mazmuni o‘quvchilarni har tomonlama ya’ni tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o‘quv fanini o‘rganish o‘quvchining materialni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta’sir chanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tafakkur turlarini rivojlantirish juda muhim sanaladi [1]. Bu borada turli usul va metodlarni qo‘llash ijobiy samara beradi.

O‘qish savodxonligi faqat texnik o‘qish emas, balki ma’naviy, lingvistik va kognitiv jarayonlar uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur usulning samaradorligi innovatsion pedagogik texnologiyalar va integrativ metodlar asosida ta’minlanadi. Masalan:

5-mashq. “Arazchi svetofor” hikoyasidan olingan parchadan bosh bo‘laklarni topib, husnixat tarzida ko‘chiring. Bosh bo‘laklarning tagiga chizing.

Katta bir shahardagi chorrahada uchta svetafor piyodalar va mashinalarning harakatini tartibga solib turibdi. Svetafor juda ko‘p yillar ko‘zlarini ochaverib-yumaverib ishlaydi. Aksiga olib, chorrahadagi mashinalar kimo‘zarga harakatlanib, svetofor ustunlarini urib ketaveribdi. Jahli chiqqan mashina esa svetoforning buyruqlarini pisand qilmay, qizil chiroqda ham o‘tib ketibdi.

Quyida boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya mazmunida takomilashtirishga oid darslar ishlanmasi.

Dars mavzusi: “Gapning bosh bo‘laklari” (Ona tili 3-sinf, 4-5-mashqlar ustida ishlash).

Darsning maqsadi:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Ta’limiy maqsad: boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish.

Tarbiyaviy maqsad: boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya mazmunida o‘qitish.

Rivojlantiruvchi maqsad: boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida o‘rgatish.

Darsni jihozlash: mavzuga oid tarqatma va didaktik materiallar, ko‘rgazma qurollar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: “Quvnoq soyabon” metodi.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashish va davomatni aniqlash.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash va baholash. Tarqatma materiallar yordamida o‘quvchilarni darsga jalb etish. Uyga berilgan vazifani tekshirish va baholash.

III. Yangi mavzuni o‘rganish. Bugungi mavzuni “Quvnoq soyabon” metodi yordamida o‘rganamiz. Sinf o‘quvchilari 4 yoki 5 nafardan iborat guruhlarga bo‘linadi. Shundan so‘ng, 3-sinf “Ona tili” II qism darsligidagi [4], “Gapning bosh bo‘laklari” mavzusidagi 5-mashqda keltirilgan “Arazchi svetofor” matnini, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” II qism darsligidagi [5] “Tez yordam yordamga shay” hikoyasi bilan fanlararo gorizontal bog‘lanish mazmunida tushuntiriladi.

4-mashq Aralash berilgan so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, gaplar tuzing.

1. Ra’no, parvarish, sevadi, uchun, gullarni, shuning, qiladi, doimo, ularni.
2. Bolalar, borib, kutubxonaga, qiziqarli, o‘qishdi, kitoblar.
3. Ayiqcha, kapalaklar, o‘ynadi, umbaloq oshib, bilan.

3-sinf “O‘qish savodxonligi” II qism darsligidagi “Tez yordam yordamga shay” hikoyasi bilan fanlararo integratsiyalaymiz.

Oqshom. Boburjonga oyisi yangi ertak aytib berarkan, uning qo‘ng‘iroq sochlarini silab-silab qo‘yardi. Xonada oyisining mayin ovozi eshitilar, ertaklarning qiziqligidan hatto tunchiroq ham uni berilib tinglayotganga o‘xshardi. Shu payt to‘satdan allaqanday mashinaning baland signali eshitildi-yu, hammani cho‘chitib yubordi.

- Oyijon, bu nimaning ovozi?
- Hozir, oppog‘im... - oyisi o‘rnidan turib, derazadan qaradi-yu, “Tinchlik bo‘lsin-da”, - deb qo‘ydi.

Bu tez tibbiy yordam mashinasining signal ovozi edi. U bemorlarga tez tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun ketayotganida signal chalardi, atrofdagi mashinalar esa unga yo‘1 berishlari kerak bo‘ladi. Kim bilsin, balki bu mashina ichida hozir bemor qariya yoki kasal bola bordir.

- U mashinada yana kimlar bo‘ladi? - Boburjonning savol xaltasi ochilib ketdi.

Mashinada shifokor, uning yordamchisi va haydovchi bo‘ladi. Agar ularga chaqiruv bo‘lsa, darrov yetib borib, bemorlarga yordam ko‘rsatishadi.

- Shifokorlardan juda ham qo‘rqaman. Nimaga ularning xalatlari oq bo‘ladi?
- Oq xalat tozalik va soflik belgisidir. Ular doimo oqko‘ngil va ochiqyuz bilan bemorlarni davolaydilar. Oq rang ishonch belgisi ham sanaladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

- Agar kechki payt -tez tibbiy yordamdagilar uyiga ketib qolganda chaqiruv bolsa, nima boladi?
- Tez tibbiy yordamda ishlaydiganlar kecha-yu kunduz tinim bilishmaydi. 24 soat mobaynida bemorlarga xizmat ko‘rsatishadi. Shuning uchun ham tez tibbiy yordam deb ataladi. Zarurat tug‘ilsa, ular bemorlarni shifoxonaga olib borishadi.
- Unda tez tibbiy yordamda ishlovchilar qachon dam olishadi?
- Ular navbatma-navbat dam olishadi. Axir, kunning istalgan vaqtida bemorlarning toblari bo‘lmay qolsa, ularga yordam ko‘rsatish kerak-ku.

Boburjon bu suhbatdan so‘ng tez tibbiy yordamda ishlaydigan shifokorlarga ichida rahmat aytdi. U insonlarga yordam berish ishtiyoqi bilan yashash qanchalar maroqli ekanini his qildi.

Demak, 3-sinf “Ona tili” II qism darsligidagi [4], “Gapning bosh bo‘laklari” mavzusidagi 5-mashqda keltirilgan “Arazchi svetofor” matnini, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” II qism darsligidagi [5] “Tez yordam yordamga shay” hikoyasi bilan fanlararo gorizontal bog‘lanishi, ularning bir - biriga mantiqan mos kelishi fanlararo aloqadorlikda tushuntirilib, yo‘l harakati qoidalarining bir-biriga uzviy bog‘liqligi haqidagi bilimlar singdirilib boriladi.

IV. Mavzuni mustahkamlash. Mavzu quyidagi savollar yordamida mustahkamlanadi.

1. Ona tilini o‘qitishda fanlar integratsiyasini takomillashtirish mazmunida fanlararo aloqadorlik mazmunidagi bilimlarning ahamiyati nimada?
2. Tez tibbiy yordam mashinasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Svetafor va to‘g‘ri harakatlanish qoidalarini bilasizmi?
4. Hikoyada qanday salbiy jihatlarni ko‘rdingiz?

V. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash. Dars yakunida fanlararo integratsiya mazmunidagi bilimlarni singdirish.

VI. Uyga vazifa. 3-sinf “Ona tili” II qism darsligidagi “Gapning bosh bo‘laklari” mavzusidagi 5-mashqda keltirilgan “Arazchi svetofor” matnini, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” II qism darsligidagi “Tez yordam yordamga shay” hikoyasini fanlar integratsiyasi asosida o‘qib kelish.

Nazorat savollari:

1. Boburjonning onasi aytayotgan ertakni kimlar maroq bilan tingladi?
2. Ayting-chi, muallif Boburjonning “savol xaltasi ochildi”, deganda nimani nazarda tutdi?
3. Nima uchun shifokorlarni kerakli manzilga olib boradigan mashinalar tez tibbiy yordam mashinasi deb ataladi?
4. Insonlarga yordam beruvchi yana qanday maxsus transport turlarini bilasiz?

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf darslarida o‘zaro fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilim doirasi kengayishida, tasavvuri va ijodiy tafakkuri rivojlanishida ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham integratsiya asosida darslarni olib borish ijobiy samara ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elmurodova I.A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini fanlararo integratsiya mazmunida o‘qitishning amaliy asoslari. // Inter education & global study. 2025. №1 B.419–428.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

2. Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi //o‘quv qo‘llanma. “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, -Buxoro. 2021.-112 b.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2009. -192 b.
4. Ona tili: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism. / D. Baynazarova - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. - 88 b.
5. O‘qish savodxonligi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism U.B.Aydarova - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.
6. Butayorov M.X. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asarlar bilan tanishtirishda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari” - Inter education & global study - 2024. – B.438